

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.T.Zokirov	
Lingvistik interferensiyaning mohiyati hususida	939
N.R.Umarova, O.T.Maxmudova	
O'zbek tilshunosligida nutq tovushlarining tasnifi masalasi	944
M.A.Matmusayeva	
O'yin nomlarida lingvomadaniy xususiyatlarning ifodalanishi.....	949
D.M.Buzrukova	
"Muhabbat" konsepti hissiy olam manzarasining muhim elementi sifatida	953
N.A.Ibragimova, N.D.Axmedova, A.Sh.Tursunov	
Tilshunoslikda modus tushunchasi	957
S.M.Zokirova G.Sh.Xusanova	
Sosiolingvomadaniyatshunoslik kontekstida bolalar o'yinlari tushunchasi	961
D.M.Yuldasheva	
Bolalarga xos matnlarda realiyalarning ifodalanishi	966
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydanish samaradorligi	971

**LINGVISTIK INTERFERENSIYANING MOHIYATI HUSUSIDA****О СУЩНОСТИ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ****ON THE ESSENCE OF LINGUISTIC INTERFERENCE****Zokirov Muxtorali Turdaliyevich** 

Farg'onan davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi, professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada lingvistik interferensiya va uning ikkinchi tilni o'rganishdagi ta'sirini tahlil qilish mavzusi ko'tariladi. Asosiy e'tibor, ona tili va o'ganilayotgan til o'rtasidagi o'zaro ta'sir va bu jarayonning til o'zlashtirishdagi oqibatlariga qaratilgan. Tilshunoslikda interferensiya hodisalarini o'rganishning nazariy va amaliy jihatlarini muhokama qilingan, bu jarayonlar ikki tilning o'zaro ta'sir qilishida qanday yuz berishi va bu ta'sirning til o'zlashtirish samaradorligiga qanday ta'sir qilishi mumkinligini tushuntirishga harakat qiladi. Shuningdek, maqola interferensiyaning salbiy va ijobjiy jihatlarini farqlaydi va til o'rganishda bu hodisani kamaytirish yoki oldini olish bo'yicha usullar taklif etadi. Tilshunoslar uchun interferensiya muammosi, til o'ganuvchilarning ongida mavjud bo'lgan ona tilining qoidalari tufayli yuzaga keladi va bu muammo til o'rganish jarayonida turli xil qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Maqola, shuningdek, til kontakti, bilingvism va interferensiya tushunchalarini aniq farqlashga urinadi va ularning har birining til o'rganish jarayonidagi rolini tahlil qiladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается тема лингвистической интерференции и её влияние на изучение второго языка. Основное внимание уделяется взаимодействию между родным языком и изучаемым языком и последствиям этого процесса для освоения языка. Обсуждаются теоретические и практические аспекты изучения явлений интерференции в лингвистике, пытаясь объяснить, как эти процессы происходят при взаимодействии двух языков и как это взаимодействие может влиять на эффективность изучения языка. Также различаются отрицательные и положительные стороны интерференции и предлагаются методы для её снижения или предотвращения в процессе изучения языка. Проблема интерференции возникает из-за наличия в сознании изучающих языковые правила родного языка, что может вызывать различные трудности в процессе обучения. Даётся разграничение понятий языкового контакта, билингвизма и интерференции и анализирует роль каждого из них в процессе изучения языка.

Abstract

This article examines the topic of linguistic interference and its impact on second language learning. The main focus is on the interaction between the native language and the language being studied, and the consequences of this process for language acquisition. The theoretical and practical aspects of studying interference phenomena in linguistics are discussed, attempting to explain how these processes occur during the interaction of two languages and how this interaction can affect the effectiveness of language learning. The article also distinguishes between the negative and positive aspects of interference and proposes methods to reduce or prevent it during language learning. The problem of interference arises due to the presence in the learners' minds of the linguistic rules of the native language, which can cause various difficulties in the learning process. It also delineates the concepts of language contact, bilingualism, and interference, and analyzes the role of each in the language learning process.

Kalit so'zlar: lingvistik interferensiya, til o'rganish, bilingvism, til kontakti, ikkinchi til, ona tili, tilshunoslik, til o'zlashtirish, til normasi, nutqiy interferensiya, leksik-semantik interferensiya, fonetik interferensiya.

Ключевые слова: лингвистическая интерференция, изучение языков, билингвизм, языковой контакт, второй язык, родной язык, лингвистика, освоение языка, языковая норма, речевая интерференция, лексико-семантическая интерференция, фонетическая интерференция.

Key words: linguistic interference, language learning, bilingualism, language contact, second language, native language, linguistics, language acquisition, language norm, speech interference, lexico-semantic interference, phonetic interference.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda til o'rganish jarayoni doimo qiziqish uyg'otib kelgan. O'ganilayotgan tilning norma va qoidalari bilan bir qatorda, ona tilining ta'siri, tilshunoslikdagi interferensiya hodisalari bu jarayonda muhim o'rinn tutadi. Interferensiya – bu ikkinchi tilni o'rganayotgan shaxslarning nutqida ko'rindigan ona tili ta'sirining ifodasidir. Bu jarayon til o'ganuvchining ona tili norma va qoidalari o'rganilayotgan tilga beixtiyor o'tkazish jarayonini o'z

ichiga oladi. Maqola, asosan, ikki til o'rtasidagi o'zaro ta'sirni, xususan, ona tili va ikkinchi til o'rtasidagi interferensiya hodisalarini o'rganishga qaratilgan.

Maqolada lingvistik interferensiyaning nafaqat salbiy, balki ijobiy tomonlarini ham yoritishga harakat qilinadi. Interferensiya hodisalarining turli ko'rinishlari, ularning til o'rganish jarayoniga ta'siri, shuningdek, bu jarayonni qanday qilib samarali boshqarish mumkinligi tahlil qilinadi. O'rganish va o'qitish jarayonlarida interferensiya hodisalaridan kelib chiqadigan muammolarni oldini olish va minimallashtirish usullari taklif etiladi.

Shuningdek, maqolada til kontakti, bilingvism tushunchalari va ularning lingvistik interferensiya bilan bog'liqligi, til o'zlashtirishdagi psixologik va sotsiolingvistik omillar ham ko'rib chiqiladi. Til o'rganuvchilarining tajribalaridan kelib chiqqan holda, interferensiyaning turli turlari – fonetik, leksik-semantik, morfologik va boshqalar – alohida tahlil qilinadi.

Maqola tilshunoslar, til o'qituvchilari va til o'rganuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, til o'rganish va o'qitish jarayonlarida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishda yordam beruvchi nazariy va amaliy ma'lumotlarni taqdim etadi. Tilshunoslik sohasidagi yangi tadqiqotlar va yondashuvlar til o'rganish sifatini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, bu jarayonlarni yanada samarali va tushunarli qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolada til o'rganishda interferensiya hodisasi, uning turlari va til o'rganuvchilarga ta'siri haqida turli manbalarda keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi va yondashuvlar, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish usullari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar Tahlili: Tadqiqot uchun tanlangan adabiyotlar orasida U.Vaynrayxning "Til aloqalari", L.V.Şcerba, A.A.Reformatskiy kabi olimlarning asarlari mavjud. Bu manbalar til o'rganish jarayonidagi interferensiya hodisasini yoritib beradi. Vaynrayx til kontakti, bilingvism va interferensiya tushunchalarini tahlil qilgan bo'lib, bu tushunchalar til o'rganishda uchraydigan asosiy qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib beradi.

Metodologiya: Tadqiqotda asosan qualitativ metodologiyadan foydalilaniladi. Buning asosiy sababi, til o'rganish jarayonida ro'y beradigan interferensiya hodisalarini chuqurroq tushunish va tavsiflash imkoniyatini beradi. Qualitativ yondashuv orqali til o'rganuvchilarining shaxsiy tajribalari, qiyinchiliklari va fikrlari tahlil qilinadi.

Ma'lumot yig'ish usullari:

Chuqur intervalar: Til o'rganuvchilardan to'plangan shaxsiy tajribalar, qiyinchiliklar va ularga qanday yechim topilganligi haqida ma'lumotlar yig'ish.

Kuzatuvalar: Dars jarayonlari va til amaliyotlari vaqtida kuzatuvalar o'tkazish orqali til o'rganuvchilarining nutqiy faoliyatini kuzatish.

Hujjatli sharhlar: O'rganilayotgan til bo'yicha mavjud o'quv qo'llanmalarini, darsliklarni va boshqa adabiyotlarni tahlil qilish.

Ma'lumotni Tahlil Qilish Usullari: Ma'lumotlar tematik tahlil yordamida qayta ishlanadi. Bu usul orqali til o'rganish jarayonida uchraydigan muammolarning sabablari va ularning echimlari aniqlanadi. Til o'rganuvchilarining tajribalari orqali olingan ma'lumotlar asosida interferensiya hodisalarining turlari va ularga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi.

Nazariy Asos: Tadqiqotning nazariy asosi sifatida tilshunoslik, psixolingvistika va sotsiolingvistika sohalaridagi asosiy tushunchalar va nazariyalar qo'llaniladi. Bu sohalar til o'rganish jarayonlarini chuqurroq tushunish va tahlil qilish imkonini beradi.

Ushbu metodologiya va yondashuvlar til o'rganishdagi interferensiya hodisalarini yanada aniq va tushunarli qilishda yordam beradi, shuningdek, til o'rganuvchilarga qo'yilgan muammolarni hal etishda samarali yechimlarni taklif etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Istalgan tilni o'zlashtirish til normasining obyektiv reallikni ifodalovchi yangi vositalarini o'zlashtirish demakdir. Fikr ifodalash uchun xizmat qiladigan lisoniy vositalar odat tusiga kirgan ona tili vositalariga ozmi-ko'pmi o'xshagan yoki mutlaqo o'xshamagan bo'lishi mumkin. U yoki bu ma'noni o'rganayotgan tilda ifodalash malakasining tanlanishi ona tili normalarini hisobga olishni taqozo etadi. Oldindan bunday chora ko'rilmasa, ona tili sistemasi tazyiqi sababli lingvistik interferensiya hodisasi sodir bo'ladi. Demak, ona tilini o'zlashtirish qonuniyati bilan ikkinchi tilni o'rganish qonuniyati bir xil emas [8, 27].

ILMIY AXBOROT

Ona tilini o'zlashtirish jarayoni bola tafakkurining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq va bir paytda amalga oshadi, shakllanadi. Bola bir paytning o'zida fikrlash va gapirishni o'rganadi. Demak, ikkinchi tilni o'zlashtirishdan avval bola ongida tilning forma va ma'nno tomoni yaxlit holda sobitlashadi. Ikki til bir paytda galma-gal o'zlashtirilmagan bo'lsa, ona tili o'rganilayotgan tilga nisbatan dominant darajada bo'ladi. Odatda, boshqa tilni yoshlikdan mukammal o'rgannagan shaxs, ona tili sistemasi asosida fikrlagan holda nutq yaratadi. Boshqa tilning lisoniy sistemasi o'zgacha bo'lsa, o'ziga xos lisoniy to'siq - lingvistik interferensiya hodisasiga duch keladi.

O'zga tilni o'rganayotgan shaxs odad tusiga kirgan ona tilining qoida, sistemasidan chiqib keta olmaydi, uni tark qilolmaydi. U o'z fikrini birinchi navbatda ona tilida shakllantirib, so'ngra ona tiliga teng keladigan vositalarni o'zga tildan topishga harakat qiladi. Demak, bunda bilish jarayoni ona tili asosida sodir bo'ladi, kommunikativ jarayon esa ikkinchi tilda amalga oshiriladi. Ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonida til bilan tafakkurning ajralish hodisasi yuz beradi. Natijada so'zlovchi ona tili sistemasi, normasidan qutula olmaydi, ikkinchi tilda nutqning shakllanish jarayoniga ona tili xususiyati monelik qila boshlaydi. Oqibatda, ikkinchi tilda so'zlovchi shaxs ona tili qoidalarini ixtiyorsiz ravishda o'rganayotgan tilga olib o'tishga majbur bo'ladi. L.V.SHcherba ikkinchi tilni o'rganishda ona tili normasi, sistemasini hisobga olish, interferensial xatoga yo'l qo'ymaslikning oldini olish niyatida: «Ona tili xususiyatlarini darsliklardan chiqarib tashlashning imkoniyati bor, ammo uni til o'rganuvchining ongidan chiqarib bo'lmaydi. SHuning uchun ham o'zga tilni o'rganishdan oldin, albatta, ona tili xususiyatlarini ongli bilib olish zarur», - deb bejiz ta'kidlamaydi [9, 343].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligida lingvistik interferensianing amaliy-nazariy jihatlari haqida ilmiy qimmatga ega fikrlar deyarli yo'q. Ayni paytda o'zbek tilshunosligining bu boradagi bir qator nazariy masalalarini hal qilish vaqtি keldi. O'zbek tili tom ma'noda davlat tili darajasiga ko'tarilishi munosabati bilan davlatlararo iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalarning kengayishi tufayli o'zga tillarni mukammal o'rganishga intilish kuchaydi. Bu holat tillarni intensiv ravishda tez o'rganishga monelik qiladigan tomonlarni hisobga olishni, profilaktik choralar ko'rishni taqozo etadi. Lingvistik interferensiya mohiyatini chuqur bilmay turib, tillarni qisqa muddat ichida tez o'rganish va o'rgatish masalalarini hal qilish mumkin emas.

Lingvistik interferensiya, bilingvizm, til kontaktlari tilshunoslikning asosiy psixologik, sotsiolingvistik masalalaridan biridir.

Bilish jarayonida borliq haqida tasavvurlar shakllanadi. So'zlar narsalar va hodisalarini nomlaydi, tushunchalarni ifodalaydi. Tafakkur asosida mantiqiy hamda psixologik qonunlar yotadi. Til yig'ilgan tajriba, ma'lumotlarni o'ziga xos ravishda ifodalaydi. Obyektiv borliqning in'ikosi bo'lgan tillar bir-biridan turli darajada farqlanadi.

Praga lingvistik to'garagi a'zolari tillardagi ana shu xususiyatlarga alohida e'tibor berib, ularni maxsus o'rganganlar, o'zga tilni osonlik bilan o'rganishga to'sqinlik qiladigan har xil hodisalarini aniqlaganlar. Ulardan biri **interferensiya** hodisasidir [6, 14]. **Interferensiya** aslida lotincha so'z bo'lib, **inter- ora, ferens- kiruvchi** degan ma'noni bildiradi. Ushbu termin dastavval fizika fanida qo'llangan bo'lib, to'lqinlarning to'qnashuvi natijasida ularning tebranish amplitudasining kuchayishi yoki susayishi ma'nosini bildiradi [7, 137]. Keyinchalik mazkur so'zning psixologiya fanida ham qo'llanishi odad tusiga kirgan. Interferensianing psixologik jihatni shundan iboratki, avvalgi faoliyat uzlusiz bir maromda qaytarilaverib, avtomatlashuvi natijasida xotiradan mustahkam joy oladi. Mabodo, keyingi faoliyat avvalgi faoliyatdan turli hajmda farq qiladigan bo'lsa, avvalgi faoliyat keyingi faoliyatga mone'lik qila boshlaydi. Natijada interferensiya hodisasi yuz beradi [3, 289]. Psixologik nuqtai nazardan interferensianing **retroaktiv, proaktiv, verbal, motor-akustik, ko'rish, selektiv** kabi turlari mavjudligi qayd qilingan [4, 124-126].

Interferensiya terminini tilshunoslikda birinchi bo'lib Praga tilshunoslari qo'llagan bo'lishlariiga qaramay, mazkur termin U.Vaynrayxning «Til aloqalari» nomli kitobi nashrdan chiqqanidan so'ng keng qo'llanila boshlandi [2, 17].

Interferensiya - bu ikki tilni mukammal bilmaydigan bilingv nutqida normadan chekinishdir. Bunday psixologik jarayonda aloqaga kirishgan tillar qoidalari o'rtasidagi mutanosiblik, adekvatlik buziladi. Interferensiya jarayonining mohiyati shundan iboratki, o'zga tilni o'rganayotgan shaxs ixtiyorsiz ravishda ona tilida mustahkamlangan nutqiy muomala qoidalari sistemasi normasini o'rganilayotgan tilga ko'chiradi.

Lingistik interferensiyaning paydo bo'lish sharti til kontaktidir. Til kontakti tushunchasi ostida ikki til jamoasi orasidagi nutqiy muloqot yoki o'quv vaziyati tushuniladi.

U.Vaynrayxning fikricha, inson nutqida o'zaro aloqaga kirishgan ikki til sistemasidan biri keyinroq o'rganilgan yoki o'rganilayotgan, ikkinchisiga nisbatan birlamchi bo'ladi. Birlamchi sistema interferensiya manbai sifatida qaraladi [2].

Bilingvismning shakllanishida analogiya qonuning roli katta, chunki bunda o'zga tilda lisoniy birlklarni yaratish va belgilash usullari intuitiv ravishda ona tiliniki bilan bir xil deb taxmin qilinadi va so'zlovchi ongsiz ravishda ularni qo'llashga harakat qiladi. Masalan, hozirgi zamon tojik tili fe'l yasalish sistemasida *kardan-qilmoq* ko'makchi fe'li yordamida qo'shma fe'llar yashash etakchilik qiladi. Shuning uchun tojiklarning o'zbek tilidagi nutqlarida tojik tili andozalariga muvofiq *qilmoq* ko'makchi fe'li yordamida yasalgan qo'shma fe'llar ko'p uchraydi: *tayyorlamoq* → *tayyor qilmoq*, *randalamoq* → *randa qilmoq*, *oqlamoq* → *oq qilmoq*. Keltirilgan misollardan ko'rinish turibdiki, ayrim ko'shma fe'llar o'zbek tili semantikasi, uslubiyati nuqtai nazaridan nafaqat g'aliz tuyuladi, balki ular umuman boshqa ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, o'zbek tilida *randa qilmoq* → *randa yasamoq* ma'nosini bersa, *oq qilmok* → *la'natlamoq* ma'nosini ifodalaydi.

Mazkur jihatlarga asoslanib zamonaviy tilshunoslikda interferensiya hodisalarini salbiy (an'anaviy qarash) hamda ijobiy (yangi qarash) deb farqlashga intilish kuzatilmoqda. Adabiyotlarda mazkur terminologik qarama-qarshilik turlicha - vositali va vositasiz, ochiq va yashirin interferensiya deb ham yuritiladi [6, 16]. Shunga qaramay, tilshunoslar e'tibori, asosan, salbiy interferensiya hodisasiga, uni oldindan aytib berish, o'rganish hamda oldini olish masalalariga qaratilgan, chunki bilingv nutqidagi **salbiy til materiali** muloqot jarayonida ma'lum bir to'siqlar yaratishi mumkin.

So'zlovchi til birlklarini, ularning shakli o'xshashligiga asoslanib, ikkinchi til birliklariga tenglashtirsa, tillararo aynan o'xshatish yuz beradi. Aloqaga kirishgan tillarning to'liq simmetriyasi holatida birinchi til sistemasi yaratgan birikmalar beixtiyor ikkinchi til qoidalariaga muvofiq ayt mas. Bunda ijobiy ko'chirish, ya'ni **ikki til qoidalaringin bir-biriga to'g'ri kelishi** deb nomlanuvchi hodisa yuz beradi.

Interferensiya darajasi va hajmi turlichadir. Ular subyektiv va obyektiv omillarga bog'liqdir. Subyektiv omillar so'zlovchining shaxsiy til qobiliyati, uning tildan xabardorlik darajasi bilan belgilanadi. Obyektiv omillarga esa aloqaga kirishgan tillarning genetik o'xshashligi, o'rganilayotgan tilning o'ziga xosligini belgilovchi uning sistem-struktur xususiyatlari kiradi.

Tildagi har qanday o'zgarish kabi interferensiya ham, dastavval, nutqiy norma sohasida namoyon bo'ladi. Intenferensiya bilingvning o'zga til bilan shaxsiy tanishuvi natijasi sifatida uning nutqida paydo bo'ladi. Bilingvlar nutqida doimiy takrorlar natijasida mustahkamlanib, odatiy holga aylangan interferensiya hodisalari tilda o'z aksini topadi. Ularning keyingi qo'llanishi endi bilingvizmga bog'liq bo'lmaydi.

Lingistik interferensiya til sistemasining barcha sathlarida uchraydi. Shunga ko'ra uni quydagi turlarga ajratish mumkin: fonetik interferensiya, leksik-semantik interferensiya, morfologik interferensiya, sintaktik interferensiya, stilistik interferensiya

Lingistik interferensiya hodisasining ko'rinishlari orasida fonetik sathga xos xususiyatlar ko'zga yaqqol tashlanadi. Ikkinchi tildan foydalanish jarayonida dominant tilga xos fonetik sistema elementlarining namoyon bo'lishi fonetik interferensiyani vujudga keltiradi. Bu esa tilshunoslikda maxsus atama - aksent termini orgali ifodalanadi. Aksentning o'ziga xos xususiyatlaridan biri - undan qutulishning nihoyat darajada qiyin ekanligidir. Chunki avvalgi talaffuz ko'nikmasi ona tilida cheksiz darajada takrorlanaverib, ikkinchi tildagi shunga o'xshash artikulyatsiyaning adekvatligiga erishishga mutlaqo to'sqinlik qiladi.

A.A.Reformatskiy fikricha, ts-bu o'zga fonologik sistemaga o'z fonologik sistema (fonemalar, ularning relevant va norelevant belgilari, turli pozitsiyalarda ularning turli o'zgarishlari, ritmik- aksentologik sharoitlar, mazkur zanjirning u yoki bu birliklarining boshi, o'rtasi va oxiri haqidagi qoida) ko'nikmalarini kiritishdir [5, 37].

Nutqiy xatolar tahlili interferensiyaning turlarini aniqlashda asosiy mezondir. Bizningcha, interferensiyaning tavsifi shu bilan chegaralanmasligi kerak. Mohiyat xato turlarini aniqlash, umumlashtirish, tasniflash va ularning sodir bo'lishini belgilashdan iborat.

O'zga tildagi xato - bu odatda «to'g'ri rejalshtirilgan fikrni ifodalash uchun o'zga til vositalarini tanlashning noto'g'ri amaliyoti natijasidir» [1, 30] Noto'g'ri tanlashning sabablari turlicha:

ILMIY AXBOROT

1. Ona tili va o'zga til hodisalariga yaxshi tushunmaslik tufayli noo'rin o'xshashliklarning paydo bo'lishi;

2. Ona tili va o'zga til faktlariga, shuningdek, o'zga til ichidagi hodisalarni semantik, struktur va funksional bir xil deb hisoblash.

Interferensiya hodisalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, u aloqaga kirishgan sistemalarning struktur tafovutga ega bo'lgan har qanday qismida, barcha til sathlarida paydo bo'lishi mumkin.

Nazariy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, interferensiya muammosi ko'p tadqiqotchilarining e'tiborini o'ziga jalb qilgan, til o'rganishda o'ta muhim bo'lgan masalalardan biridir. SHuning uchun ularni tahlil qilish bo'yicha bildirilayotgan fikrlar doirasi ancha kengdir. Bularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

1. Birinchidan, «til kontakti», «bilingvizm» va «interferensiya» tushunchalarini farqlash.

2. Ikkinchidan, interferensianing turli ko'rinishlarini, uning paydo bo'lishini fonetik, leksik-semantik, grammatik sathlari nuqtai nazaridan tadqiq etish.

3. Interferensiyaning tavsifida, nodifferensial kompleks yondashuv metodidan foydalanish zarur.

Interferensiya tavsifining nazariy hamda amaliy natijalaridan to'g'ri foydalanish o'quv jarayonini tashkillash bo'yicha o'qituvchi ishini engillashtiradi, o'zga tilni o'qitish jarayonida interferensiya tufayli kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlarni hisobga olish hamda oldini olishga imkon yaratadi va shunday qilib, til o'rganish sifatini yanada yaxshilashga olib keladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot orqali til o'rganish jarayonida uchraydigan interferensiya hodisalari va ularning o'rganuvchilarga ta'siri chuqur o'rganildi. Tahlillar natijasida til o'rganishda ro'y beradigan lingvistik interferensiya holatlari, ularning sabablari va oqibatlari aniqlandi hamda bu jarayonlarni optimallashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Til o'rganuvchilarining ona tili va o'rganilayotgan til o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar tushunilishi, bu jarayonni to'g'ri yo'naltirishda muhim o'rinn tutadi. Til o'rganishda ona tili norma va qoidalari ta'siridan qutulish qiyin bo'lishi, lekin bu jarayonni tushunish va to'g'ri yo'lga qo'yish orqali samarali natijalarga erishish mumkinligi isbotlandi.

Shuningdek, tadqiqot davomida yig'ilgan ma'lumotlar til o'rganuvchilarining real tajribalariga tayanib, ularning qiyinchiliklarini hal etishda qo'llaniladigan metodik yondashuvlar takomillashtirildi. Interferensiyaning salbiy ta'sirini kamaytirish va til o'rganish jarayonini tezlashtirish bo'yicha aniq usullar ishlab chiqildi.

Natijada, interferensiya hodisasini chuqur tushunish va uni boshqarish, til o'rganuvchilarining tez va samarali til o'zlashtirishlarini ta'minlashda asosiy omil sifatida ko'rsatildi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar kelgusida ham davom ettirilishi, til o'qituvchilarini va o'rganuvchilar uchun qo'shimcha o'quv materiallari va qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozim.

Tadqiqotda olingan natijalar tilshunoslik sohasida yangi bilimlar yaratishga, shuningdek, til o'qitish amaliyotini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Til o'rganishda duch keladigan muammolarni hal etishda ushbu tadqiqotdan olingan yondashuvlar qo'llanilishi mumkin bo'lib, ular til o'rganuvchilarining til o'zlashtirish jarayonini yanada samarali qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Будренюк Г.М., Григоревский В.М. Языковая интерференция и методы её выявления. - Кишинёв, 1978.
2. Вайнрайх У. Языковые контакты. - Киев, , Вища школа, 1979.
3. Игнатьев Е.И. ва бошқалар. Психология. - Т.: Ўқитувчи, 1970.
4. Краткий психологический словарь. - М., 1985.
5. Реформатский А.А. Введение в языкоковедение. - М., 1970.
6. Розенцвейк В.Ю. Основные вопросы теории языковых контактов. - В кн: Новое в лингвистике. вып. VI Языковые контакты. – Москва: Прогресс, 1972.
7. Стрелков С.П. Механика. – М.: Лань, 2005. – С.488; Физика. 11-синф. - Т., 1996.
8. Федоренко Л.П. Закономерности усвоения родной речи.- М., 1984.
9. Шчерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Ленинград: Наука, 1974.